



ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika universitetining o'zbek tili va adabiyot kafedrasida o'qituvchisi

Tuyg'unova Dilbar

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti
402- guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish masalalari ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning samarali yo'llari, xususan, interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari va ijodiy nutq faoliyatiga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning o'quvchi nutqini rivojlantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, matn bilan ishlash, mulohaza yuritish, bahs- munozara, hamda lingvomadaniy ko'nikmalarni shakllantirish kabi jarayonlarning nutq madaniyatiga ta'siri yoritiladi. Maqolada o'quvchi shaxsining mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati, adabiy til me'yorlariga rioya qilishi va raqamli savodxonlik asosida nutqni to'g'ri tashkil etishi zamonaviy ta'limning muhim vazifasi sifatida ko'rsatib beriladi.

Olingan natijalar zamonaviy texnologiyalar, interfaol o'yinlar va yangi metodik yondashuvlar yordamida nutq madaniyatini kompleks rivojlantirish mumkinligini asoslaydi.

Tayanch so'zlar. Nutq madaniyati, o'quvchi, nutq, interaktiv metodlar, savodxonlik

Bugungi globallashuv jarayonida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Nutq madaniyati – bu faqat to'g'ri talaffuz yoki adabiy til me'yorlariga amal qilish emas, balki muloqotning mazmuniy, estetik, pragmatik tomonlarini ham qamrab oluvchi murakkab kompetensiyadir. Shu bois zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar hamda kommunikativ metodlar asosida nutq malakasini rivojlantirish bugungi ta'limning strategik yo'nalishiga aylangan. Nutq madaniyatining asosiy xususiyati esa nutqni ilmiy, sermazmun, aniq-ravshan, to'g'ri, ta'sirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor, jozibali bayon etilishdan iborat. Buning uchun nutq adabiy til qonun-qoidalariga to'liq javob berishi lozim.

Bugungi raqamli davrda nutq madaniyatini rivojlantirishda turli zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni o'zgachadir. Bunday texnologiyalar orqali ta'lim muassasalarida dars jarayonlari yuqori sifatda olib borilmoqda. Misol uchun, audio va

video yozuvlar bilan ishlash, podkastlar yaratish, raqamli lug'atlar va onlayn korpuslardan foydalanish, interaktiv platformalar (Quizlet, Kahoot, Mentimeter), matnni qayta ishlash dasturlari orqali xatolarni avtomatik aniqlash. Raqamli resurslar nafaqat dars jarayonini jonlantiradi, balki o'quvchining mustaqil nutqiy faoliyatini kuchaytiradi.

Tadqiqot jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish samaradorligi amaliy mashg'ulotlar, kuzatuv va taqqoslash usullari orqali tahlil qilindi. Jumladan, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy usullarga nisbatan yuqori natija bergani aniqlandi.

Masalan, ona tili va adabiyot darslarida **rolli o'yinlar** va **bahs-munozarali topshiriqlardan** foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutq faolligini oshirdi. O'quvchilar berilgan mavzu yuzasidan o'z fikrini erkin, mantiqiy va adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ifodalashga intildi. Natijada ularning nutqidagi grammatik xatolar kamayib, so'z boyligi va nutq ravonligi sezilarli darajada oshdi[1]

Yana bir misol sifatida **loyihaviy faoliyatni** keltirish mumkin. O'quvchilarga kichik guruhlarda "Mening kasbim", "Kitobxonlik madaniyati" kabi mavzularda taqdimot tayyorlash topshirig'i berildi. Ushbu faoliyat jarayonida o'quvchilar axborotni tanlash, uni tizimli bayon qilish va auditoriya oldida chiqish qilish ko'nikmalarini egalladi. Bu esa nutq madaniyatining amaliy jihatdan shakllanishiga xizmat qildi[2]

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning muloqotga kirishish darajasi oshadi, o'z fikrini asoslash va dalillash ko'nikmalari rivojlanadi. Bu holat nutq madaniyatini rivojlantirishda interfaol metodlarning muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Nutq madaniyati tushunchasi tilshunoslikning funksional, psixolingvistik va sotsiolingvistik yo'nalishlari bilan bevosita bog'liq. O'quvchilar nutqini rivojlantirish jarayoni ularning fonetik kompetensiyasi, leksik boyligi, grammatik to'g'riligi, nutqiy mantiqi, uslubiy sezgirliigi kabi ko'nikmalarini takomillashtirishni talab etadi. O'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda ta'lim mazmunining kommunikativ kompetensiya bilan uyg'unlashuvi muhim o'rin tutadi. Qolaversa, o'quvchi nutqini rivojlantirishda o'qituvchining o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchi uchun nafaqat bilim beruvchi, balki kompetensiyani shakllantiruvchi yo'l boshchi hisoblanadi. U: Nutqiy namuna bo'lishi; O'quvchilarga madaniyatli muloqot ko'nikmalarini ko'rsatishi; Interaktiv muhit yaratishi; Differensial yondashuvni qo'llashi; Motivatsiyani kuchaytirishi kerak; Professional o'qituvchining nutq madaniyati yuqori bo'lsa, o'quvchilarning nutqi ham shunga mos darajada rivojlanadi[3]

Psixolingvistik tadqiqotlar o'yin orqali tashkil etilgan mashg'ulotlarni bolalarda nutqni erkin va muloqotga yo'naltirilgan holda rivojlantirish uchun eng samarali

vosita ekanligini tasdiqlaydi. O'yin faoliyati o'quvchilarning diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini faollashtirib, nutqiy harakatlarning tabiiy shakllanishiga zamin yaratadi. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarga ko'ra, o'quvchi shaxsining nutq madaniyatini rivojlantirish jarayoni til birliklarini mexanik o'zlashtirish bilangina cheklanmay, balki muloqot strategiyalari va diskursiv kompetensiyalarni integrativ shakllantirishni ham talab qiladi. Nutq madaniyatini rivojlantirishda o'quvchining axborotni qayta ishlash, tanqidiy tahlil qilish va mantiqiy asoslangan xulosa chiqarish kabi kognitiv jarayonlarga faol jalb etilishi, uning kommunikativ savodxonligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi. Bu jarayonda o'quvchi faol subyekt sifatida quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1. Kommunikativ faoliyatda ishtirok etish. O'quvchi muloqotga kirisha olishi, fikrini ravon va mantiqli ifodalashi, suhbatdoshni hurmat qilgan holda nutq madaniyati me'yorlariga amal qilishi kerak. Dialog va poliloglarda qatnashish uning nutq tajribasini boyitadi.

2. Mustaqil fikrlash va fikrni asoslab berish. Zamonaviyyondashuvlarda o'quvchi tayyor javobni emas, balki o'z qarashlarini dalillar bilan asoslay olishi talab qilinadi. Bu jarayon nutqning mazmuniy tozaligi, mantiqiyligi va aniqligini kuchaytiradi.

3. Axborotlarni tanqidiy tahlil qilish. O'quvchi turli manbalardan (inson nutqi, matnlar, media axborotlari) olingan ma'lumotni solishtirish, ishonchliligini tekshirish va xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Bu tanqidiy fikrlash bilan bog'liq bo'lib, nutq madaniyatini yuqori darajada shakllantiradi.

4. Adabiy norma va til madaniyati qoidalariga rioya qilish. Grammatik, orfoepik, stilistik me'yorlarga amal qilish o'quvchining asosiy vazifalaridan biridir. To'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, mazmunan aniq va toza fikrlash nutq madaniyatining yagona tizimini yaratadi.

5. Raqamli savodxonlik asosida nutqni rivojlantirish. Zamonaviy yondashuvlarda multimediya vositalaridan foydalanish, prezentatsiyalar, videoroliklar orqali o'z fikrini ifodalash ko'nikmasi muhim. O'quvchi raqamli platformalarda ham madaniyatli nutq bilan muomala qilishi kerak.

6. Jamoaviy ishda faol bo'lish. Guruhli muhokamalar, loyiha ishlari, debatlar o'quvchining nutqiy faolligini oshiradi. Jamoada tinglash, bahslashish madaniyati, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish – uning muhim vazifalaridan biri.

7. Badiiy va ilmiy matnlar bilan muntazam ishlash. Mutolaamadaniyatiga amal qilish, badiiy va ilmiy matnlarni tahlil qilish orqali o'quvchi lug'at boyligini kengaytiradi, stilistik sezgini rivojlantiradi. Bu esa ravon, boy va mazmunli nutqni shakllantiradi.

8. Nutqiy kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish. O'z nutqini tahlil qilish, kamchiliklarni anglash va ularni bartaraf etishga intilish o'quvchining shaxsiy mas'uliyatidir. O'qituvchi ko'rsatmalari asosida muntazam mashq qilish nutq ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Zamonaviy texnologiyalar asosida "matn mazmunini

davom ettirish”, “suhbat” va “notog’ri yozilgan so’z” kabi o’yinlarni qo’llash orqali o’quvchi nutqini tizimli ravishda rivojlantirish mumkin, chunki bunday interfaol topshiriqlar uning til birliklarini faol qo’llashiga va nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu turdagi raqamli o’yinlar muntazam qo’llanilganda, o’quvchining badiiy adabiyotga bo’lgan qiziqishi sezilarli ravishda ortadi, shuningdek, u matn mazmunini anglash, tahlil qilish va ijodiy davom ettirish kabi ko’nikmalarni ham chuqur egallay boshlashiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 2019.
2. Hojiev A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Yo’ldoshev M., Mengliyev B. O’zbek tili ta’limi metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Shavkatovna, T. M. (2021, June). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. In Archive of Conferences (pp. 22-24).
5. Shavkatovna, T. M. (2024, June). NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK QARASHLAR. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 6, pp. 3-7).
6. Shavkatovna, T. M., & Ruhshona, K. (2024, May). PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 5, pp. 17-22).
7. Shavkatovna, T. M. (2023). BO’LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO’LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O’RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O’RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 6-8.
8. LI, T., MN, A., & Shavkatovna, T. M. (2025). NUTQ BUZILISHLARINING KOMPLEKS KORREKSIYASI: LOGOPED VA OTA-ONANING HAMKORLIGI. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 66-69.
9. Shavkatovna, T. M. (2024). ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G’OYALAR, 1(3), 28-31.
10. Shavkatovna, T. M. (2024). INNOVATION YONDASHUVLAR ASOSIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI



RIVOJLANTIRISH. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 337-340.

11. Beknazarovna, Q. O., & Shavkatovna, T. M. (2024). TALABALARNING NUTQIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQ MADANIYATINING O‘ZARO BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI MAZMUNI. Science and innovation, 3(Special Issue 18), 952-954.

12. Shavkatovna, T. M. (2025). ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR, 2(2), 57-59.

13. Shavkatovna, T. M. (2025). O‘ZBEK TILI VA UNING TILLAR TIZMIDAGI O‘RNI. BILGI ÇEŞMESI, 1(6), 30-33.

